

“Targ‘ibot”ning talantli talabalari tadbirida

Madaniy hordiq inson ruhiyatiga tetiklik, kayfiyatiga ko‘tarinkilik baxsh etadi. Shunday ekan, kuy, qo‘shiq, raqs va o‘yin -kulgi xuddi shu ma‘noda alohida ahamiyat va mazmun kasb etadi. Asab va g‘azabni susaytirib, shod-u xurramlikni kuchaytiradi. Quvnoqlar va zukkolar tanlovida e‘tiborli o‘rinlarni egallab ta‘lim muassasamiz nufuzini oshirib kelayotgan “Targ‘ibot” terma jamoasining shou konsert dasturi kuni kecha institutimizning madaniyat saroyida tashkil etildi.



Tadbirda ayniqsa, Dilnoza Jabborova jozibador qo‘shiqlarini aytib raqsga chorlashi barchaga birdek ma‘qul keldi. Shuningdek, institutimizning faol talaba-yoshlaridan tarkib topgan “TIAME Bend” ansambli o‘zining jonli ijrosi bilan barchani hayratga soldi va hammani lol qoldirdi desak, mubolag‘a bo‘lmasa kerak. Tadbirni maroqli va mazmunli o‘tishida Jamshid Komiljonovning xizmatlarini alohida e‘tirof etish joizdir.



Konsert dasturida yoshlar orasida mashhur va manzur bo‘lib kelayotgan “Million” va “Bravo” jamoalarining ayrim a‘zolari mehmon sifatida tashrif buyurib zavq-shavqqa to‘lishdi.

TIQXMMI matbuot xizmati